

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

NORMAMATOVA MAXSUDA NURMAMATOVNA

**IJTIMOYIY- SIYOSIY YUKSALISH SHAROITIDA IJTIMOYIY
XIZMATLAR SOHASINI VIRTUALLASHTIRISH: MOHIYATI,
NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI**

09.00.01 - Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философских наук (DSc)**

**Content of the abstract dissertation of the
Doctor of philosophical sciences (DSc)**

Normamatova Maxsuda Nurmatovna

Ijtimoiy-siyosiy yuksalish sharoitida ijtimoiy xizmatlar sohasini virtuallashtirish:
mohiyati, nazariyasi va metodologiyasi 3

Нормаматова Махсуда Нурмаатовна

Виртуализация сферы социальных услуг в условиях социально-
политического подъема: сущность, теория и методология 33

Normamatova Mahsuda Nurmatovna

Virtualization of the sphere of social services in the conditions of socio-political
rise: essence, theory and metodoogy 67

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 72

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

NORMAMATOVA MAXSUDA NURMAMATOVNA

**IJTIMOYIY- SIYOSIY YUKSALISH SHAROITIDA IJTIMOYIY
XIZMATLAR SOHASINI VIRTUALLASHTIRISH: MOHIYATI,
NAZARIYASI VA METODOLOGIYASI**

09.00.01 - Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.DSc/Fal103 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Davranov Ziyet

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ramatov Jumaniyoz Sultonovich

falsafa fanlari doktori, professor

G'affarova Gulchehra G'ulamjanovna

falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Niyazimbetov Marat Kutdiyrovich

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" _____ soat _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.:(0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" _____kuni tarqatildi.

(2023-yil "_____" _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash kotibi,

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi,

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy xizmat tizimini virtuallashtirish borasida ulkan amaliy tajribalar to'planmoqda. Virtual ijtimoiy xizmat tizimi rivoji ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy omillar hamda jamiyat hayotida mavjud realliklar bilan bog'liq turli ko'rinishdagi qiyinchiliklar, iqtisodiy muammolar hamda jismoniy sog'liqning yo'qotish natijasida dolzarblashib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda pandemiya va global muammolar shuni tasdiqladiki, ijtimoiy xizmatlar sohalarini virtuallashtirish aholiga xizmat ko'rsatishda eng qulay vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, virtual ijtimoiy xizmatlar qonuniyatlarini aniqlash, kishilik jamiyatiga sifatli virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ayniqsa, ijtimoiy ko'makka muxtoj shaxslarga virtual xizmatlarni tashkillashtirish masalasi obyektiv zaruratga aylanmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida va oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish jamiyatdagi moddiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga bog'liqligini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, uning ilmiy-nazariy jihatlari, amaliy ahamiyati masalalari, metodologik mohiyati, ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishning aktual jihatlari borasidagi tadqiqotlar yetarli emasligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga hozirgi davrda dunyoda virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayoni insoniyatga xos harakat turi sifatida takomillashmoqda. Virtual ijtimoiy xizmatning xalqaro tajribasi va amal qilishini ta'minlashda umumbashariy, mintaqaviy va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda abadiyatga daxldor ijtimoiy xizmatni virtuallashtirish mezonlarning jamiyat intellektual taraqqiyotiga hamohangligi, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yo'lga qo'yish zaruriy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholining turli qatlamlariga yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, jismoniy salohiyatini inobatga olgan holda amaliy yordam ko'rsatish tizimini virtuallashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. "Ijtimoiy sohani takomillashtirish va bu boradagi islohatlar bilan aloqador bo'lgan idoraviy axborot tizimlar, elektron resurs va ma'lumotlar bazalari mavjud emasligi ham bu boradagi ishlarimiz rivojiga xalal bermoqda"¹. Shu maqsad yo'lida, rivojlangan mamlakatlarning sinovdan o'tgan tajribalari asosida ijtimoiy xizmatlar tizimini yangicha mexanizmlarini tashkil etish va mamlakatimizda zamonaviy, ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish borasidagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib, istiqbolli, ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish qonuniyatlarini nazariy-metodologik tahlil etish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 – yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 8-fevraldagi PF-

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 201.

3678-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, shuningdek, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori va O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 26-dekabrda O‘RQ-415-son “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹:

Virtualistika metodologiyasining turli sohalarida qo‘llanilishi va amaliy ahamiyati masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Bryussel boshqaruv maktabi (Belgiya), Harvard University Near East Research Center (AQSH), Tokyo University of Foreign Studies (Япония), The Australian National University (Avstraliya); Graduate School of China Academy of Engineering Physics (Xitoy); Sentr “Лаборатория виртуалистики. Институт РАН” (Rossiya); shuningdek, bugungi kunda O‘zbekiston Milliy universiteti, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti (O‘zbekiston) yetakchi olimlari va faylasuflari tomonidan ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish metodologiya doirasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ilm-fan taraqqiyotining turli yo‘nalishlarida virtualistikaning metodologik imkoniyatlaridan foydalanilgan, sunniy intellekt masalalari bo‘yicha dunyoda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: dissipativ tizimlarni matematik nazariyasi ishlab chiqilgan, virtual xizmatlar nazariyasining samarali mexanizmlari takomillashtirilgan (“Bryussel boshqaruv maktabi” (The Brussels School of Governance); virtual xizmat ko‘rsatish-ta’lim loyihasiga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan (Harvard University Near East Research Center (AQSH); virtual xizmatlar metodologiyasi nazariy asoslangan Tokyo University of Foreign Studies (Япония); dissipativ tizimlar modeli, ekstremal hodisalar, virtual to‘lqinlar va soliton nazariyasi ishlab chiqadi The Australian National University (Avstraliya); kvant o‘lchovi, kvant betartibligi va kondensatsiyalangan moddalar fizikasi kabi kvant fazasi o‘tishlarining virtual zarracha haqidagi tadqiqotlari olib borilgan (Graduate School of China Academy of Engineering Physics (Xitoy)); virtual voqelikni falsafiy, texnik, tabiiy fanlar va gumanitar jihatlarini o‘rganilgan (Центр

¹ Mavzu yuzasidan xorij tadqiqotlari sharhi quyidagi informatsion resurslarga tayangan holda tayyorlandi: http://www.eoht.info/page/Brussels_school_of_thermodynamics; www.harvard.edu; www.cam.ac.uk; www.ox.ac.uk; www.stanford.edu; www.princeton.edu; www.yale.edu; www.columbia.university; www.uchicago.edu; www.u-tokyo.ac.jp; www.ugla.edu; www.jhu.edu; www.nus.edu.sg; www.tsinghua.edu.cn; www.msu.ru; www.ru.wikipedia.org; www.nir.ru; www.gmir.ru; www.krfu.ru; www.central-asia.institute; <https://www.mpg.de/4744848/pohl>; Verified email at enr.uconn.edu; b.mukushev@kazatu.kz.

“Лаборатория виртуалистики. Институт РАН” Rossiya); virtualistik metodologiyaning ijtimoiy xizmat jarayonini tadqiq etishdagi istiqbolli imkoniyatlari belgilab berilgan (O‘zbekiston Milliy universiteti, Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti).

Dunyoda virtualistikaning metodologik, evristik imkoniyatlari rivojlanishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: falsafiy bilimlar tizimida, shuningdek, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, biologiya, kimyo, statistik fizika, ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishlarga virtualistik yondashuv bo‘yicha; tabiat va insonning ijtimoiy birligi, dunyoning virtual manzarasini shakllantirish, ijtimoiy-gumanitar sohalarni virtualistikani tahlil qilish asosida virtual xizmatlarni tashkil qilish uchun kurash masalalari; ijtimoiy xizmat va ijtimoiy borlikni o‘rganish bilan bog‘liq sohalarda; xizmat ko‘rsatuvchi obyektlar, ijtimoiy xizmatning asl mohiyati va falsafiy jihatlarini virtual yondashuv asosida ochib berishga oid; ijtimoiy xizmatlar mazmunida virtual xizmat g‘oyalarini aks ettirish hamda virtualistikaning kasbiy jihatlarini ochib berishga oid; ijtimoiy xizmat tizimining virtual qonuniyatlari orqali yangi pedagogik, innovatsion texnologiyalarni yaratish; ijtimoiy xizmat sistemasida virtual metodologiya imkoniyatlaridan samarali foydalanishni tadqiq etish.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish muammolari tarmoqlar, ular orasida, ayniqsa, zarur bo‘lgan iqtisodiyot, tibbiyot, huquq, madaniyat va san‘at, ma‘naviyat, ma‘rifat, psixologiya sohalarida ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan alohida o‘rganilmagan. Biroq, ontologik, metodologik, gumanistik va umummadaniy kabi bir qator funksiyalarni bajarib, boshqa fanlarda o‘rganilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab beradi. Tadqiqot ishi yuzasidan ijtimoiy xizmatni virtuallashtirish tizimining rivojlanishi muammosini jahondagi faylasuf olimlardan R.Lynn John Chandler, Linda Bell, Elisabeth Berg, Jim Barry, H.Sonya, Hu Jierong Yenching, Annie J.Keeney, Amy M.Smart, Regina Richards, Shannon Harrison, Manuel Carrillo va Deborah Valentine, T.Mafile’o, Paul Force-Emery Mackie va Osiyolik faylasuf olimlardan T.Akimoto, A.Mishima, B.Vijayalakshmi, A.Albrithen kabilar tomonidan ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning virtual yo‘nalishlari, rivojlanishi, jamiyat hayotidagi ahamiyatli jihatlarini tadqiq etganlar. Zamonaviy axborotlashgan jamiyat taraqqiyotida virtual reallikni ongning muayyan bir holati bo‘lgani uchun obyektiv reallikdan, shu jumladan, bizning kundalik hayotimizdan farqlanishiga oid falsafiy qarashlar K.Doych, D.Iston, G.Almond, Dj.Koulman, L.Pay, U.Shramm, T.Adorno, G.Markuze, Yu.Xabermas, M.Xorkxaymer, G.Shiller, M.Kactelc, M.Magspyuen, E.Masuda, E.Toffler, Dj.Gelbreyt, P.Druker, D.Bell, A.Ursul, N.Moiseev¹ kabi G‘arb olimlari tomonidan ilgari surilgan. D.Bell

¹ Маркузе Г. Одномерный человек: Исследование идеологии развитого индустриального общества. – М: REFL book, 1994. – С. 73; Habermas J. The Structure Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: Polity Press, 1989. – P.161; Manuel C. The rise of the network society. - London, 2010. - P. 597; Госшельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Пер. с англ. под науч. ред. Шкаратана О.И. - М: ГУ ВШЭ, 2000. – С. 590; Магспюэн М. Понимание медиа: внешние расширения человека. - М: КАНОН-Пресс-Ц, 2003. - С. 464; Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Washington: World Future Society, 1981. – P. 171; Тоффлер Э. Третья волна. – М: Издательство АСТ, 2002. – С. 261; Урсул А.

virtual reallikni “elektron hisoblash mashinasini tizimli tahlil nazariyasini qo‘llagan holda murakkab masalalarni echishda ilmiy asosli va zaruriy sohalardan biri”¹ sifatida ta’riflagan. M.Kastels² virtuallashuvni ijtimoiy borliqning boshqa barcha jabhalariga, xususan, yoshlar ma’naviy-axloqiy olamiga ta’sirini o‘rgangan.

MDH mamlakatlaridan V.Babenko, I.Korsunsev, N.Nosov kabi olimlari qarashlari “virtual reallik”ning ontologik maqomini anglash imkonini berdi. N.Viner, S.Orexova, D.Dubrovskiy, R.Abdiev, D.Ivanov, M.Ignatev, V.Kovalevskaya va E.Shapovalovlarning asarlari esa virtuallikning kompleks ilmiy yo‘nalishi sifatida shakllanishiga xizmat qilgan³. MDH faylasuf olimlarining ilmiy ishlarida ijtimoiy ish, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy yordam, ijtimoiy xizmatdan foydalanishga ehtiyoj masalalari turli ilmiy ta’limotlar asosida o‘rganilgan. Bunda, P.Aytbaeva, V.Antropov, N.Markova, N.Musaeva, I.Xarisov, T.Karaev, A.Abdupapova, E.Orozaliev, T.Kozlova, N.Tarusina, N.Shvedova, G.P.Medvedeva, N.M.Gopishnalarning ilmiy ishlarini keltirish mumkin.

Mamlakatimiz faylasuf olimlaridan J.Tulenov, S.Shermammedov, N.Hakimov, Z.Qodirova, M.G‘anieva, S.Mamashakirov, S.Otamuratov, I.Saifnazarov, A.Qodirov, O.Nishonovlar tomonidan mavzuga aloqador bo‘lgan falsafiy masalalar o‘rganilgan. Turli ijtimoiy guruhlarini himoyalash hamda ijtimoiy muhofaza bilan bog‘liq jihatlar Q.Abduraxmonov, L.Xalikova, J.Isakov kabi olimlarning ishlarida milliy madaniyatni inobatga olgan holda iqtisodiy munosabatlar doirasida xizmat ko‘rsatish va uning tarmoqlashuvining samaradorligi, ijtimoiy xizmat xodimining kasbiy axloqi, huquqiy jabhasi, ijtimoiy yordamning o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan. Axborotlashgan jamiyat, virtual texnologiyalar bilan bog‘liq masalalarning alohida jihatlari O.Fayzullaev, M.Abdullaeva, R.Imomaliyeva, K.Tulenova, Z.Davronov, N.Shermuxamedova, E.Izzetova, Sh.Kushakov, G.G‘afforova, B.To‘raev, B.Karimov, D.Raxmonov tomonidan o‘rganilgan⁴. Jumladan, O.Fayzullaev virtual texnologiyalarni kibernetika fanini mahsuli sifatida baholagan bo‘lsa, N.Shermuxammedova virtual voqening belgi va xususiyatlarini, M.Abdullaeva axborotlashgan jamiyatning epistemologik jihatlari tadqiq etgan. R.Imomaliyeva axborotlashgan jamiyatning yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ta’sirini o‘rgangan. K.Tulenova esa axborotlashgan jamiyat taraqqiyotining milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojiga ta’sirini tadqiq qilgan.

Информатизация общества. Введение в социальную информатику. – М, 1990. – С.175; Моисеев Н.Н. Расставание с простотой. – М: Аграф, 1998. – С. 472.

¹ Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: Опыт социального прогнозирования. – М: Academia, 1999. – С. 956; Белл Д. Социальные рамки информационного общества. Новая технократическая волна на Западе. Под ред. Гуревича П.С. – М: Прогресс, 1998. – С.342.

² Кастельс М. Становление общества сетевых структур. Новая постиндустриальная волна на Западе: Антология. – М: Academia, 1999. – С. 494.

³ Орехов С.И. Поиск виртуальной реальности. – Омск: ОмПГУ, 2002. – С.184; Дубровский Д.И. Проблема “Сознание и мозг”: Теорическое решение. М: “Канон+” РООИ Реабилитации, 2015.– С. 400;

⁴Файзуллаев О. Ал-Хоразмий// Мустакиллик: изохли илмий-оммобоп луғат. 2006. – Б.29-30; Абдуллаева М.Н., Иzzetova Э. Информационное общество и гуманизация научного знания // Экологический вестник. №1, 2001. – С.2-4; Кушаков Ш.С. Природа и основные виды информации (философско-методологические аспекты). Автореф... дисс. канд. филос. наук. – Тошкент, 1978. – С.24; Гаффарова Г. Аxborotlashgan jamiyatda terrorchilik faoliyati haqida / “Глобал терроризм ва унинг геосийсий ўлчами” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари. 2-китоб, Навоий 2005. – Б. 45-47; Нормаматова М. Виртуалистикада постноклассик эпистемология ғоялари. фал.ф.б.фал.д. (PhD) ...Автореф. – Самарқанд, 2018. – Б. 40.

To'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishga bag'ishlangan deyarli hech qanday asar yo'q. Bularga D.Barnsning ijtimoiy tarmoq konsepsiyasi, G.Reingoldning virtual hamjamiyatlarni o'rganishi va boshqalar kiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ijtimoiy va virtual kommunikatsiyalarga bag'ishlangan turli xil asarlar bilan dissertatsiya tadqiqotining tanlangan mavzusi ijtimoiy-falsafiy jihatdan kam o'rganilgan va yanada rivojlantirishni talab qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ijtimoiy xizmat sohalarini virtuallashtirishning mohiyatini ontologik, metodologik jihatdan ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimlashuvining nazariy metodologik asoslarini o'rganish, nazariy modellarning qiyosiy tahlili doirasida ijtimoiy xizmatning etnomadaniy va ma'naviy tarkiblari mazmunini asoslash;

raqamlashtirishni mazmuni va funksiyalarini ontologik va gnoseologik jihatlarini aniqlash;

jamiyat hayotining virtuallashuvi sharoitida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashuvi transformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini asoslash;

ijtimoiy xizmatni virtuallashtirishning nazariy modellari va amaliy texnologiyalarini ilmiy asoslash;

ijtimoiy xizmatni raqamlashtirishda konstant va virtual xizmatlar dialektikasini aniqlash;

virtual texnologiyalardan foydalanishning internet, telemuloqot, interfaol dars singari samarali usullari xususiyatlari va ijtimoiy sohalarda qo'llash istiqbollari mantiqiy hamda pragmatik asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti axborotlashgan jamiyatda ijtimoiy xizmatlarni virtuallashuvi va transformatsiyasini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, obyektivlik, analiz va sintez, analogiya, umumlashtirish, modellashtirish, tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamlashtirishning ontologik va gnoseologik funksiyalarini evristik, dialektik, kibernetik, sinergetik, germenevtik jihatdan tadbiq etish metodologiyasini kengaytirish orqali iqtisodiyot, biznes, moliya, sanoat, sog'liqni saqlash, ta'lim, axborot tizimlari kabi ijtimoiy sohalarni virtuallashtirishning pragmatik mohiyati ochib berilgan;

aholining ehtiyojmand toifalari uchun virtual xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlashda elektron hukumatning korrelyatsion-prognostik hamda pragmatik-

uslubiy aspektlarini konstruktiv mohiyati bugungi davr xarakteriga mos ravishda takomillashtirish zaruriyati mantiqiy dalillangan;

ijtimoiy xizmatlar tizimiga joriy etilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni virtuallashtirishning nazariy epistemologik, falsafiy, metodologik asoslari argumentlangan;

jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy o'zgarishlar natijasida ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasi asosida jismoniy imkoniyati cheklangan aholi qatlamiga amaliy yordam berish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, bandligiga ko'maklashish faoliyatining metodologiyasi evristik jihatdan asoslangan;

ijtimoiy-siyosiy yuksalish sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini, tarixiy ongini kuchaytirishda virtual axborot vositalardan foydalanishga oid yo'nalishlar, tavsiyalar hamda virtual muzey, virtual tarixiy obrazlar, virtual buyuk shaxslarning virtual timsollari, virtual turizm, virtual sayohat singari virtualistik tushunchalarning mazmunini ochuvchi definitiv qoidalarning nazariy pragmatik, innovatsion ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishni metodologik jihatlarini tanqidiy va innovatsion yondashuv asosida ilmiy asoslangan;

kompyuter inqilobi jamiyatni virtuallashtirishning texnologik determinanti ekanligi qiyosiy tahlil usulini qo'llash yo'li bilan ko'rsatib berilgan;

jamiyatni ijtimoiy sohasini raqamlashtirishning o'ziga xos xususiyat va sifatlarini takomillashtirishning tarixiy aspektlari tadqiq etilib, tizimli yondashuv asosida ishlab chiqilgan;

informatsion jamiyatda virtual xizmatlarni va ijtimoiy hayotni raqamlashtirish o'rtasidagi konstruktiv aloqadorlik mantiqiy jihatdan dalillangan;

O'zbekiston yuksalish sharoitida kompyuter inqilobining transformatsiyasi, uning ilm-fan va ta'lim, zamonaviy texnologiyalarni yaratish borasidagi evristik roli hamda ahamiyati ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika xalqaro ilmiy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va risolalardagi xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan nazariy va uslubiy xulosalar, taklif va tavsiyalardan "Ta'lim falsafasi", "Texnika falsafasi", "Falsafa va fan metodologiyasi", "Dialektika va bilish nazariyasi" kabi fanlar doirasida foydalanish, shuningdek, "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi", "Fan falsafasi", "Ontologiya va bilish nazariyasi" kabi mutaxassislik fanlarining mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirishda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda metodologik-nazariy material sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, unda ilgari surilgan yondashuvlardan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda, oliy ta'lim tizimida, muzey-

lar, kutubxonalar, fuqarolik jamiyati institutlari, Elektron hukumatni rivojlantirish markazi, IT parklar hamda ommaviy axborot vositalari faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ijtimoiy-siyosiy yuksalish sharoitida ijtimoiy xizmatlar sohasini virtuallashtirishni tadqiq etish asosida:

raqamlashtirishning ontologik va gnoseologik funksiyalarini evristik, dialektik, kibernetik, sinergetik, germenevtik jihatdan tadbiq etish metodologiyasini kengaytirish orqali iqtisodiyot, biznes, moliya, sanoat, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, axborot tizimlari kabi ijtimoiy sohalarni virtuallashtirishning pragmatik mohiyatiga oid ilmiy taklif va tavsiyalardan 2017-2020 yillar davomida Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170928696-raqamli “O‘zbekistonda islohotlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi (Harakatlar strategiyasi asosida)” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2022-yil 28-iyuldagi 04/11-4371-son ma‘lumotnomasi). Natijada, amaliy ilmiy-tadqiqot loyihasini yanada takomillashtirishga va aholining ehtiyojmand qatlamiga virtual xizmat ko‘rsatish mexanizmlarini yoritib berishga xizmat qilgan;

aholining ehtiyojmand toifalari uchun virtual xizmat ko‘rsatish sifatini ta‘minlashda elektron hukumatning korrelyatsion-prognostik hamda pragmatik-uslibiy aspektlarini konstruktiv mohiyati bugungi davr xarakteriga mos ravishda takomillashtirish zaruriyatiga oid taklif-tavsiyalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining “Yoshlarning internet saytlardagi axloq normalari va ma‘naviyatimizga zid bo‘lgan ijtimoiy-ma‘naviy hayotimizga tahdid soluvchi axborotlar oqimidan himoyalash, ularda ushbu axborotlarga nisbatan ma‘naviy immunitet hosil qilish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazish” hamda Oliy ta‘lim muassasalarida “Globallashtirish sharoitida yoshlarning mafkuraviy immunitetini oshirish yo‘llari” mavzularidagi dastur ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2021-yil 10-sentabrdagi 02/08-1075-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yoshlar axborot madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda mavjud axborot tahdidlarini oldini olish, virtual texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy xizmatlar tizimiga joriy etilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalarni virtuallashtirishning nazariy epistemologik, falsafiy, metodologik asoslari argumentlanganligiga oid taklif va tavsiyalardan “Ijtimoiy ish nazariyasi” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 8-sentabrdagi 89-06-735-son ma‘lumotnomasi hamda Samarqand davlat universitetining 2020-yil 28-yanvardagi 6-sonli qaroriga asosan 166 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, o‘quv qo‘llanmaning ilmiy ahamiyatini oshirishga, zamonaviy, virtual xizmatlar samaradorligi va milliy ta‘lim tizimini shakllantirishga oid takliflar ishlab chiqishga, ta‘lim jarayonini innovatsion g‘oyalar bilan boyitishga xizmat qilgan;

jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma‘rifiy o‘zgarishlar natijasida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasi asosida jismoniy imkoniyati cheklangan aholi qatlamiga amaliy yordam berish, uyushmagan yoshlar

bilan ishlash, bandligiga ko‘maklashish faoliyatining metodologiyasiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan “O‘rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi” mavzusidagi ensiklopediyani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazining 2021-yil 18-avgustdagi 02/330-son ma’lumotnomasi). Natijada, keng jamoatchilikka buyuk ajdodlarimiz ma’naviy merosiga bo‘lgan qiziqishini ortirishiga va ularning falsafiy, ma’naviy-ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy-siyosiy yuksalish sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini, tarixiy ongini kuchaytirishda virtual axborot vositalardan foydalanishga oid yo‘nalishlar, tavsiyalar hamda virtual muzey, virtual tarixiy obrazlar, virtual buyuk shaxslarning virtual timsollari, virtual turizm, virtual sayohat singari virtualistik tushunchalarning mazmunini ochuvchi definitiv qoidalarning nazariy pragmatik, innovatsion ahamiyatiga oid metodologik tavsiyalar va amaliy takliflardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvi va “Kasbim-fahrim” radioeshittirishining navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 11-avgustdagi 01-11/482-son ma’lumotnomasi). Natijada, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda virtual xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, shu sohani takomillashtirish orqali kreativ tafakkurni shakllantirishga oid nazariy va uslubiy g‘oyalar, tamoyillarni o‘rganish masalasi keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma’ruzalarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 35 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 2 ta monografiya, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola (6 ta xorijiy va 10 ta respublika jurnallarida) e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 201 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi hamda uning xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning “**Virtuallik: falsafiy va ilmiy-nazariy tahlil**” deb atalgan birinchi bobida virtualistika falsafasida paradigmal yangilanish masalalari, “axborotlashgan jamiyat” va “virtual reallik”, “virtual ijtimoiy xizmat” va “virtualistika” tushunchalarining falsafiy mazmun-mohiyati, ijtimoiy virtual xizmat haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar genezisi, axborotlashgan jamiyat va virtual reallikning dialektik tabiati nazariy-metodologik jihatdan tadqiq etilgan.

“**Virtuallik g‘oyasi, vujudga kelishi va shakllanishi**” deb nomlangan birinchi paragrafda virtual reallik g‘oyasining nazariy asoslari tadqiq etilgan. Insoniyat azal-azaldan virtual hodisalarga duch kelgan, ular bilish va amaliy faoliyatda u yoki bu darajada anglangan. Ammo faqat XX asrning 2-yarmida virtuallik mohiyati, unga oid xossalar, qonuniyatlar ilmiy-amaliy va texnologik tadqiqotlar predmetiga aylandi. Shu davrgacha falsafa va fanda virtuallik fenomenini o‘rganishda borliqni bilish muammosi bilan epistemologik nisbatda bo‘lgan, virtuallik tushunchasi bilan turdosh bo‘lgan imkoniyat tushunchasi xususida mulohazalar yuritilgan.

Tadqiqot doirasida, “virtuallik”, “virtual borliq”, “virtual reallik”, “virtual ehtiyoj”, “virtual manfaat” toifalari axborotlashgan jamiyat taraqqiyotining obyektiv va subyektiv omillari tarzida olib qaraldi. Bu kategoriyalar mazmuni virtual faoliyat subyektlariga xos va ularni harakatlantiruvchi mexanizm bo‘lgani uchun ham, bir-biriga juda yaqin tushunchalardir. Shuningdek, insonni axborot olishga bo‘lgan ehtiyojlari bilan manfaatlar o‘rtasida farq ham mavjud. Bu, eng avvalo, ularning mazmun ko‘lamida ko‘zga tashlanadi, ya’ni insonni axborot olishga bo‘lgan ehtiyoji kattaroq tizimga mansub bo‘lib instinktiv, reflektiv va ongli darajalarni ham qamrab oladi.

Virtuallik muammosini yechish uchun nazariy zamin bo‘lgan dialektik tafakkur tarzi Geraklit nomi bilan bog‘liqdir. Dialektik tafakkur doirasidagina voqelik tadrijiy rivojlanadi, tug‘iladi, bir sifatdan ikkinchi sifatga o‘tadi, uning sharoitlari va imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarni ishlab chiqish mumkin. Bu o‘rinda Geraklitning tilga olinganligi sababi shundaki, mazkur mutafakkir virtuallik fenomeni ma’nosiga turdosh mazmuni saqlaydigan, bo‘lajak voqelik kurtagini o‘zida mujassamlantirgan “urug‘” tushunchasini falsafiy refleksiya doirasiga kiritdi. Geraklitning fikricha, umumiy mohiyat bo‘lgan, borliqning yaratuvchi kuchini (negizini) tashkil qilgan olovdan suv (dengiz) paydo bo‘lib, u “olamni hosil qiladigan urug‘”ga aylanadi. Virtuallik va voqelik, ularning o‘zaro munosabati xususida mulohaza yuritish maqsadida Aristotelning “dyunamiks” va “energeya” (amalga oshirilgan, voqelik) tushunchalaridan foydalanadi. Faylasuf ta’limotida imkoniyat, potentsiallik materiyaning universal xislati sifatida borliq va bilishning atributiv xossasi darajasiga ko‘tariladi, olamning ontologik talqini esa cheksiz va ko‘pxillik manzarasi chizgilarini oladi.

Lotin tiliga asoslangan G‘arb o‘rta asr va Renessans ma’naviyatida “virtus” atamasi oldin mavjud bo‘lgan ma’nolarni saqlagan holda¹, falsafa va fan

¹ Monten o‘zining “Tajribalar” asarida Senekaning *Авидо ест перикуну виртус* (jasorat xavf-xatarga intiladi) deb aytilgan so‘zlariga havola qilib, *virtus* so‘zini ezgulik, kuch, ruh, ulug‘vorlik, qat’iyat ma’nolarida ishlatadi. Qarang: *Монтен. Опыты. Избранные главы.* – М., 1991. – С.48.

namoyondalari (Avgustin, F.Akvinskiy, N.Kuzanskiy, N.Orem va boshqalar) tomonidan “qobiliyat”, “ichki kuch”, “potensiya”, “qudrat” kabi ma’nolarda ham foydalanilgan¹. Shu davrdan boshlab hozirgacha “virtuallik” tushunchasi potensiya, kurtak, imkoniyat, noreal olam, oraliq holat, qobiliyat va shunga o‘xshash sinonim ma’nolarda qo‘llanilmoqda.

Virtual reallik ongning muayyan bir holati bo‘lgani uchun obyektiv reallikdan, shu jumladan, bizning kundalik hayotimizdan farqlanadi. Xuddi shunday virtual reallik texnologiyalari falsafa, psixologiya, estetika va umuman ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tadqiq etiladi. Epistemologik nuqtai nazardan qaraganda, “virtual bilim” subyektiv hodisadir, ayniqsa, miyani asl mohiyatini idrok etish, bilish va qayta ishlash va shu asosda shakllangan tasvir va kayfiyatni anglatadi. E.Kovalevskaya fikricha, virtual reallik haqida ko‘pgina va turli xil, ko‘pincha qarama-qarshi talqinlar mavjud bo‘lsada, “virtual reallik” fan va bilish metodologiyasida mustahkam pozitsiyalarni egallamoqda². Demak virtuallik ilmiy-nazariy jihatdan ko‘rib chiqilmoqda.

Shunday qilib, D.Yumdan boshlab G.Gegelgacha bo‘lgan davr ichida virtuallik g‘oyasi mazmunan boyitildi, xususan, uning tarkibiga o‘zida yangi ma’nolarni saqlagan ehtimollik va tasodif tushunchalari kiritildi. Borliq va bilishga nisbatan qo‘llanilgan virtuallik fenomeni sharoit, manba, ehtimollik, kurtak kabi ma’nolarda tushunildi va talqin qilindi.

“Virtuallik tushunchasining falsafiy va ilmiy-nazariy talqinlari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda, virtuallik tushunchasini tarixiy taraqqiyoti tahlil qilingan. Qadimgi Yunonistonda nazariy tafakkur darajasiga ko‘tarilgan va “imkoniyat” kategoriyasi bilan ifodalangan dastlabki virtualistik g‘oyalar musulmon Sharqida ham nazardan chetda qolgan emas. Buyuk allomalar Al-Kindiy, Forobiy, Ibn Sinolar sabab va oqibatning oldingi holati ma’nosini bildirgan imkoniyat va potentsiallik tushunchalaridan ontologik va epistemologik masalalarni hal qilishda keng foydalanib, o‘z davrlari ilmi va amaliyoti nuqtai nazaridan bu tushunchalarning yangi ma’no-mazmunini ochib berganlar.

Abu Nasr Forobiy “imkoniyat” kategoriyasidan borliq va bilishning tub mohiyatini talqin qilishda keng foydalandi. Mutafakkir “imkoniyatdagi aql”, “imkoniyatdagi ruhiyat”, “aktual va potensial munosabatdoshlar” tushunchalarini izohlab berdi³. Uning fikricha, imkoniyatdagi aql, faol aqldan ta’sirlanib, borliqdagi narsalarning mohiyatini anglaydi. Bu potensial aql mushohada qilish kuchi orqali predmetlardagi mohiyat va shakllarni fikrda ajratib oladi. Shu jarayondan keyin potensial aql voqeyi (aktual) aqlga aylanadi.

Buyuk alloma Ibn Sino “imkoniyat” tushunchasining epistemologik talqinini “belgilanish” va “holat” tushunchalari yordamida amalga oshirib, muhim falsafiy g‘oyani olg‘a suradi. Faylasufning fikricha, barcha mavjud narsalar substansiya

¹ Мухаммадиев Х.Х. “Виртуаллик” тушунчасининг фалсафий-тарихий таҳлили. Илм-фан ва таълим-истиклол пойдевори. Республика илмий-назарий семинар материаллари. – Самарқанд-Тошкент, 2013. – Б. 64 – 65.

² Ковалевская Е. Виртуальная реальность: философско-методологический анализ: Дисс. ...канд. филос. наук. –М., 1998. – С.112.

³ Аль-Фараби. Рассуждения о значениях (слова) разум. Аль-Фараби. Философские трактаты. – Алма-Ата, 1970. – С. 24.

yoki aksidensiya sifatida namoyon bo‘ladi. Substansiyaning mavjud bo‘lishi mohiyat bilan belgilanadi. Lekin imkoniyatning bor bo‘lishi substansiyaning mohiyati bilan emas, balki narsaning u yoki bu tarzda mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Demak, ayon bo‘ladiki, imkoniyat maxsus substansiya emas, balki substansiyaning holatidir. Narsa va materiya imkoniyat holatida mavjud bo‘lishi mumkin. Materiya har doim imkoniyatdagi narsa yoki predmetdir, shu bois u oldin mavjud bo‘ladi¹. Ibn Sino falsafasida virtuallikning materiya aksidensiyasi sifatida talqin qilinishi natijasida imkoniyat tushunchasi ontologik kategoriya ma’nosiga ega bo‘ladi.

O‘rta asr G‘arbiy Evropa sxolastik falsafasidagi “imkoniyat” tushunchasidan Foma Akvinskiy bilish jarayonini talqin qilishda foydalanadi. U Aristotelning potentsiya (virtuallik ma’nosida) va aql tushunchalariga bergan izohini qabul qiladi. Potentsiya materiyaning xislatidir. Shaklning maqsadga muvofiq faolligi tufayli imkoniyatdagi narsa (materiya) voqelikka aylanadi. Bu g‘oyani Foma Akvinskiy bilish haqidagi ta’limot sohasiga tatbiq qiladi, imkoniy (virtual) aql va faol aqlni farqlaydi, ularning bilish jarayonida namoyon bo‘ladigan funksiyalari xususida mulohaza yuritadi. Foma Akvinskiyning fikricha, imkoniy (virtual) aql mushohada qilish kuchi yordamida narsalardagi shakllarni ularga o‘xshash obrazlarga aylantiradi, faol aql ularni qayta ishlaydi, shuning oqibatida tushunchalar hosil bo‘ladi². Demak, faol aqlning harakati natijasida virtual holatda bo‘lgan imkoniy aqldan real hosil bo‘lgan yangi bilim (tushunchalarga) o‘tish sodir bo‘ladi.

XX asr faylasuflarining fikricha, virtual borliqqa nisbatan mavjud narsalarning manbai inson ongining mehnat mahsuli sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, virtual borliq substansiya va potentsialga qarama-qarshidir. Boshqacha qilib aytganda, virtual obyekt mavjud, lekin u moddiy emas. Biroq bu haqiqiy emas, balki real va ayni paytda potentsialdir. M.Xorijev fikricha, virtuallik - kelib chiqishga ulgurmagan voqea, paydo bo‘lishga ulgurmagan borliqdir³ deb yozadi.

Xullas, virtual reallikning rivojlanish bosqichlari umumiy fan va texnikaning rivojlanish darajalariga mos ravishda o‘z xarakterini o‘zgartirib, muayyan ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o‘ziga xos mazmun kasb etadi.

“Virtualistika - yangi fan paradigmasi sifatida” deb nomlangan uchinchi paragrafda virtualistikaning ontologik, epistemologik va amaliy bilish kabi jihatlari o‘rganilgan. Yangi fan paradigmasining vujudga kelishida falsafiy, ilmiy va texnologik asoslarning mavjud bo‘lishi shart bo‘lsa-da, lekin ular hali yetarli emas. Fan paradigmasi o‘zagini tashkil qilgan nazariyaning strukturaviy (tashkiliy) unsurlari oldparadigmal bosqichda shakllanadi. Agar ular (masalan, virtual tushunchasi) oldingi zamonlarda ilm-fan tarkibiga kiritilgan bo‘lsa, yangi ma’no-mazmun bilan boyitiladi. Virtualistika paradigmasi ham shunday evolyutsion (tadrijiy) o‘zgarish pallasidan o‘tdi. Virtuallik nazariyasining bosh konseptual unsurini tashkil qilgan “virtual reallik” tushunchasi o‘tgan asrning 80-90 yillarida

¹ Ибн Сина. Книга знания. Ибн Сина. Избранные произведения. – М.: Наука, 1980. – С. 132-133.

² Соколов В.В. Средневековая философия. – М., 1979. – С. 369.

³ Хориев М. Виртуальная реальность. – М.: ОЛМА-ПРЕСС, 2001. – С.269.

fanga kiritilgan bo'lsa-da, bu tushunchada sodir bo'lgan semantik o'zgarish (mazmunan boyishi) oldinroq boshlangan.

Ontologik yondashuv jihatidan olib qaraganda, virtual reallikning substrati, energiyasi, fazo va vaqti, hosil qiladigan jarayonlari mavjuddir. Virtuallikning bu jihatlarini ochish virtualistika fani paydo bo'lishidan ancha oldin sodir bo'lgan. Mazkur epistemologik tahlilni amalga oshirish uchun V.P.Branskiy¹ ishlab chiqqan ilmiy tadqiqotning asosiy bosqichlari to'g'risidagi g'oyaga murojaat qilamiz va muayyan bosqichda qaysi virtualistik tushuncha hosil bo'layotganini aniqlaymiz.

Virtuallikning nazariy bilish obyektlari:

1. Virtolyusiya - ko'p darajali virtualliklar evolyutsiyasi jarayonini bildiradigan nazariy tadqiqot obyekti. "Virtolyusiya" tushunchasi virtualistikada hosil qilingan nazariy umumlashmadir.

2. Poliontik virtual reallik - virtuallik borlig'ining turli-tuman va xilma-xilligi. Obyektning universallik xislati ontologik kategoriyada ifodalanadi, boshqacha qilib aytganda, poliontik virtuallik alohida kategorial maqomga egadir.

3. Virtual reallik - bu yaratilganlik, aktuallik, mustaqillik (avtonomlik) va interfaollik xislatlarga ega bo'lgan bilish obyektidir.

4. Virtual inson - virtualistik psixologiyada izohlanishicha, insonning o'zida mavjud bo'lgan barcha virtual realliklar majmuasi.

Ontologik maqomga ega bo'lgan tadqiqot obyektlari:

1. Virtuallik - virtual hodisalar, virtual reallik bo'laklaridan (qismlardan) iborat bo'lgan obyekti. Virtual reallikning ontologik birligi. Virtualistikaga ko'ra, virtual reallik virtualliklardan tashkil topadi.

2. Virtualchi dasturchi - virtualliklarni, virtual realliklarning yaratuvchisi. Kompyuter texnologiyasida dasturchi virtual reallikning yaratuvchisi hisoblanadi. Virtualchi, asosan, psixologik virtualistikaning tadqiqot obyektidir.

3. Kovirtuallik - o'zaro ta'sirda bo'lgan virtuallar va virtual realliklarning o'zaro bog'lanishlari va birligi. Ontologik mazmunga ega bo'lgan virtuallikning bilish obyekti hisoblanadi.

4. Matreshka tamoyili - konstant va virtual realliklarni bir-birlariga kirishishi va aksincha, chiqishini bildiradigan murakkab obyektiv jarayon ifodasi bo'lib, ontologik mazmunga ega.

Epistemologik bilish obyektlari:

1. Virtuallikning bilish jarayoni va qonuniyatlari. Epistemologik tahlil orqali virtuallikning bilish obyekti, predmeti va jarayoni o'rganiladi.

2. Virtuallik psixologiyasi - virtuallik epistemologiyasining obyekti va predmeti tarkibiga kiradi. Bu yo'nalishning shakllanishi, undagi gnoseologik, institutsional, metodologik o'zgarishlar va takomillashuv epistemologik tahlil obyekti tashkil qiladi.

3. Aktual attraksiya usuli - virtual hodisa va reallikka kishi diqqatining jalb qilinishini o'rganish yo'li bo'lib, virtualistikada yaqinda epistemologik tahlil obyektiga aylandi.

¹ Qarang: Бранский В. П. Научное исследование // Диалектика познания. Коллективная монография. – Л.: Изд.ЛГУ, 1988. – С. 231-248.

4. “Aviaufq” usuli - ma’lum bir vaziyatga mos keladigan virtuallikni modellashtirish usuli. Bu usulning epistemologik tahlili va undan olingan natija psixologik virtualistika uchun gnoseologik va metodologik asos bo’ladi.

Amaliy bilish obyektlari:

1. Aretvt - virtual obyekt, *konsuetal* va kompyuterli virtual realliklar yaratuvchisi bilan ishlaydigan mutaxassisdir. Sun’iy virtual realliklarning ta’sir ko’rsatish miqyosi ortib borgan sari, ularning iste’molchilari bilan ishlaydigan, muloqot qiladigan mutaxassislar (aretevtlar) tayyorlash dolzarb masala bo’lib qoldi.

2. Aretent - areteyani qabul qiladigan, virtual reallik sohasida faoliyatni amalga oshirganda areteya tavsiyalariga rioya qiladigan subyekt. Bu yangi tipdagi faoliyat subyekti virtualistik tadqiqot obyektiga aylandi.

3. Areteya - virtual obyektlar bilan ishlash amaliyoti. Bu amaliyot virtual realliklarga bo’lgan munosabat, virtualliklardan foydalanish, ta’sir ko’rsatish va aksincha, ta’sirlanish qoidasi va tamoyillariga tayanadi.

4. O’zining ichki virtual realligini yaratadigan inson – operator. Amaliy tadqiqot obyektida inson - operator muammosi virtualistikaga psixologiya fanidan o’tdi, natijada, tarmoqlararo izlanish obyektiga aylandi.

Virtualistika fanining vujudga kelishida bevosita asos va manba bo’lib xizmat qilgan ilmiy va ilmiy-texnologik yo’nalishlarni o’rganish va tadqiq qilish muhimdir. Virtualistika fani paradigmasi shakllanishida asos manba sifatida obyektga modeli yondashuv g’oyasi va amaliyotining roli beqiyos kattadir. Shunday qilib, noklassik fanlar doirasida matematik, simvolik (ramziy), verbal, dasturiy modellashtirish usullarining ishlab chiqilishi virtualistika fani obyektiga bo’lgan virtual reallikni o’rganishda, shu fanning konseptual va uslubiy imkoniyatlarini boyitishda muhim evristik asos bo’ldi.

Shunday qilib, bildirilgan fikrlar asosida birinchi bobga quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. Virtual reallik tushunchasiga berilgan asosiy talqinlar, virtuallik mohiyatini ochishga qaratilgan konsepsiyalar va yondashuvlar bayon qilindi. Tahlil shuni ko’rsatadiki, virtualistikaning bosh kategoriyasi hisoblangan virtual reallik tushunchasining umum qabul qilingan ta’rifi yoki tushuntirish modeli hozircha yo’q. Bu sohada izlanishlar davom etmoqda.

2. Hozirgi paytda virtualistika paradigmasi asosida virtuallikni o’rganish empirik, eksperimental va nazariy darajalarda olib borilmoqda. Olinayotgan natijalarning falsafiy refleksiya hamda ontologik va epistemologik tahlili dolzarb muammo bo’lib turibdi.

3. Amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning ahamiyati shundaki, tadqiqot obyektiga haqida aniqroq tasavvur hosil qilish, oldin o’rganilmagan obyektga xos faktlarni aniqlash mumkin. Bu esa virtual reallik tushunchasi mazmunini yangilashga olib keladi, virtualistik tadqiqot epistemologiyasida obyekt - subyekt muammosi refleksiya amalga oshirishni faollashtiradi.

4. Yangi ilmiy yo’nalishlarning vujudga kelishi, ulardagi konseptual unsurlarning shakllanishi uchun ma’lum oldparadigmal va paradigmal muhit

bo'lishi kerak. Virtualistikaning vujudga kelishi uchun zarur paradigmal muhit XX asrning ikkinchi choragida paydo bo'ldi.

Dissertatsiyaning **“Jamiyatni virtuallashtirish: asosiy omillar va determinantlar”** deb atalgan ikkinchi bobida axborotlashgan jamiyatda virtual reallikni anglashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, virtual reallik texnologiyalarining inson va jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'siri, ijtimoiy-madaniy hayotning virtuellashuvi va qadriyatlar transformatsiyasi tadqiq etilgan.

“Kompyuter inqilobi - jamiyatni virtuallashtirishning texnologik determinanti”, deb nomlangan birinchi paragrafida virtual reallik texnologiyalari shiddatlik rivojlanib, inson hayot tarzini o'zgartiradigan omilga aylanishi va insonlarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga ta'siri, madaniyat, axloq va qadriyatlar transformatsiyasi olib kelishi haqida tahlillar keltirilgan.

Insoniyat globallashtirilgan, axborotlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tuzilmalardan iborat bo'lgan postindustrial sivilizatsiya dunyosiga kirib keldi. Bu sivilizatsiya o'tgan asrda jamlangan barcha kreativ potentsiallarni ishga solib, ma'lum jihatdan inqilobiy bo'lgan postnoklassik madaniyat, fan va texnologiyaga asoslangan innovatsion olamni bunyod etmoqda.

Falsafiy manbalarda virtual reallik determinantlashtiruvchi, insonning axborot olishga bo'lgan ehtiyoj, manfaat va maqsadlarini tadqiq qilishda, ularning aloqalari fragmentar yoki bir-biridan mustaqil holda o'rganilmoqda.

Kompyuterli virtual reallikning funksional konsepsiyasi ildizlari quyidagilardir:

1) Kompyuterning funksiyalari dasturiy ta'minot takomillashuviga bog'liq ravishda tubdan o'zgarishga qodirligi.

2) Virtual reallik inson imkoniyatlari uchun elektron informatsiya dunyosida mo'ljall olishning eng maqbul, ko'proq “tabiiy” usulidir.

Kompyuterdagi virtual voqeilikda aks etirish jarayonlari multemedia rejimida sodir bo'ladi, ya'ni kadrlarni to'xtatish, sekinlatish, tezlatish, oldinga o'tkazish orqaga qaytish va tanafus qilish mumkin, harakat esa mutloq o'zgaruvchanlik maqomiga ega bo'lmaydi. Rivojlanish tegishicha inversion bo'lishi, ya'ni orqaga qaytarilishi mumkin: o'zaro ta'sirlarning rang-barangligi biz ko'nikkan dunyoviy sababiyat sharoitlarida ma'lum bo'lgan sirli xossalarini nomoyon etishi mumkin.

Kompyuterdagi virtual reallikning o'ziga xos xususiyati shundaki, u inson tomonidan yaratiladigan artefaktlar sohasiga tegishlidir. Kompyuter olamidagi virtual reallik xuddi biz his etib ko'radigan borliqqa o'xshaydi. Virtual reallikning tarkibiy qismlari bilan ishlash real jihozlar va predmetlar bilan ishlashga aynan o'xshashdir. Aynan virtual reallikning mana shunday interaktiv imkoniyatlari shu darajada ahamiyatli bo'lib borishiga olib kelmoqda.

Kompyuter vositalari yordamida yaratilgan voqelik modeli virtual va virtual voqelik hisoblanadi. Mazkur model insonning voqelik ichida mavjudligi effektini hosil qiladi va hayoliy obektlar bilan ishlash imkonini beradi. Shu narsa diqqatga sazovorki, virtual voqelik dunyosiga insonning chuqur kirib borishi, unga to'la bo'ysunishini virtual voqelikning asosiy fazilatlar sifatida ko'rsatadilar. Demak, kompyuter mavjudligini e'tibordan soqit etadigan bo'lsak, insonning o'z ongi fantaziyalarida sayohat qilishi shizofreniyaga yetaklaydi, kompyuter modellashtirish

tiruvchi tizimi ishtirok etgan taqdirda esa inson xayoliy voqelik bilan amalga oshiruvchi xuddi shu amallar virtual olamdagi normal o‘zaro aloqa, deb e’tirof etiladi. Bunda virtual voqelik eng yangi texnologiya hisoblanadi, texnik jihatdan ta’minlanmagan bunday o‘xshatishlar esa patologiya deb talqin qilinadi. Virtual voqelikning mazmuni dunyoni takrorlashdan iborat deb uylash noto‘g‘ri bo‘lar edi, aksincha, u mazkur dunyoga kirishga yoki uni hech bo‘lmasa uni tuldirishga yo‘naltirilgan. Har bir ijtimoiy texnologik inqilobning asosida maxsus texnologik tizimlar mavjud bo‘lib, informatsion inqilob sharoitida informatsion texnologiyalar bu vazifani bajargan. Uning hosilasi sifatida kishilik jamiyatida informatsion sivilizatsiya vujudga kelgan¹. Bunda informatsion va kompyuter inqilobi moddiy ishlab chiqarish va dunyoqarashni ham, muloqot jarayonlari va san’at ham tub mohiyatan o‘zgaradi. Informatsion texnologiyalar nafaqat moddiy ishlab chiqarishni balki ma’naviy bilimlarni ishlab chiqarishni ham o‘zgartirib yubordi.

Xullas, jamiyatning yangi bosqichida axborot texnologiyalarining rivojlanishi ijtimoiy-madaniy transformatsiyalashuvni tezlashtirib, bu jarayonda insonlarning maqsadli harakatlari hamda jamiyatning virtual reallikka ta’siri masalasini globallashuv asri talablaridan kelib chiqib ijtimoiy-falsafiy jihatdan barqaror o‘rganishni taqozo qiladi.

“Informatsion jamiyatni shakllanishi ijtimoiy virtuallashtirishning asosi” deb nomlangan ikkinchi paragrafida informatsion jamiyat to‘g‘risida ilmiy mulohazalar keltirilgan hamda uning ijtimoiy virtuallashtirishning asosi ekanligi ilmiy dalillangan. Fikrimizcha, informatsion jamiyat - real ijtimoiy munosabatlarni ularning virtual obrazlari bilan almashtirish jarayonidir. Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab axborot texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ular turli shakllarda namoyon bo‘lmoqda: masalan, shaxsiy kompyuterlar, smartfonlar, Internet, mobil va veb-ilovalar, raqamli yordamchilar va bulutli hisoblash va boshqalar shular jumlasidandir. Ro‘yxat doimiy ravishda o‘sib bormoqda va ushbu texnologiyalarning yangi shakllari kundalik hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Ba’zi hollarda, masalan, onlayn multiplayer o‘yinlar kabi, ushbu texnologiyalar hatto o‘zaro ta’sir o‘tkazish uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Aslida, axborot texnologiyalari bu ma’lumotlarni yozib olish, uzatish, sintez qilish yoki tartibga solish texnologiyasidir. Axborotlashgan jamiyatning shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, ijtimoiy taraqqiyotni yangi bosqichining sivilizatsiyaning postindustrial bosqichiga o‘tishi jamiyat hayotining turli sohalarda katta o‘zgarishlarga olib keldi.

Ijtimoiy rivojlanishning ushbu yangi bosqichi sivilizatsiyaning postindustrial yerdan keyingi bosqichga o‘tish harakati jamiyat hayotining turli sohalarini chuqur qayta qurishga olib kelishi D.Bell, E.Toﬀler, J.Furastier, M.Kastels tomonidan asoslangan.

D.Bell o‘zining “Postindustrial jamiyatning kelib chiqishi” asarida “G‘arb jamiyatlarining ijtimoiy tuzilishidagi o‘zgarishlar to‘g‘risida o‘ziga xos ijtimoiy bashoratni” ilgari suradi². Biroq D.Bell ushbu tarixiy burilish naqadar murak-

¹ Азизқулов А., Юсупов М., Рўзимуродов С. Компьютер фалсафаси. – Самарқанд, 2014. – Б.6.

² Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: Опыт социал. прогнозирования / Даниел Белл; Пер. с англ. под ред. В. Л. Иноземцева. – М.: Academia, 1999. – С. 783.

kabligini aniq anglay olmagandi. Shuning uchun bu jarayonni umumlashtirib “postindustrial jamiyat” atamasidan foydalanadi. Shuningdek, Tofflarning “Uchinchi to‘lqin”¹, Neysbitning “Massiv tendensiyalari”², Masudaning “Yangi axborot jamiyati”³ asarlarida ham bu muammoga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Dj.Neysbitning fikricha, axborot jamiyatining rivojlanishi 1956-1957-yillarda boshlangan. O‘sha paytda yaratilgan sunniy yo‘ldoshlar, kosmik kemalar, kompyuterlar, aloqa texnologiyalari, televizor va boshqa shu kabilar yerni global qishloqqa aylantirdi. Axborot asrining hayotiy yo‘nalishi - bu axborot uzatish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradigan aloqa texnologiyalarining rivojlanishidir. Telefon, kompyuter va televizorlarning kombinatsiyasi integratsiyalashgan axborot va aloqa tizimlari, mobil aloqa tizimlarini, insonlar va kompyuterlar o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni keltirib chiqardi. Ya’ni, zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyat rivojlanishi uchun katta harakatlantiruvchi kuch beradi. Strategik manba sifatida yo‘q bo‘lib ketgan axborotni endi qayta tiklash imkoni mavjud.

Axborotlashgan jamiyatda axborot inson bilimining asosiy manbalaridan biri bo‘lib qoldi. Shu ma’noda, ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuksalishi zamonaviy makroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda. Bu jarayonlar o‘z navbatida ommaviy axborot va texnologiyalarni vujudga keltirib, axborotni saqlash va qayta tahlil qilishning turli murakkab yo‘nalishlarining shakllanishiga olib keldi. Kommunikatsiya tizimidagi bunday o‘zgarish hatto xo‘jalik tizimini o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, axborotga nisbatan ommaviy e’tijning o‘sishi, umuman, axborot va kommunikatsiya xizmati sohasining o‘sishiga olib keldi⁴. Demak, ijtimoiy xizmatlar aynan axborotlashgan jamiyatda sifat jihatidan yangi shakl va mazmunga ega bo‘la boshladi.

Har bir ijtimoiy texnologik inqilobning asosida maxsus texnologik tizimlar mavjud bo‘lib, informatsion inqilob sharoitida informatsion texnologiyalar bu vazifani bajargan. Uning hosilasi sifatida kishilik jamiyatida informatsion sivilizatsiya vujudga kelgan. Bunda informatsion va kompyuter inqilobi moddiy ishlab chiqarish va dunyoqarashni ham, muloqot jarayonlari va san’at ham tub mohiyatan o‘zgaradi. Informatsion texnologiyalar nafaqat moddiy ishlab chiqarishni balki ma’naviy bilimlarni ishlab chiqarishni ham o‘zgartirib yubordi⁵. Bunda, texnologik inqilob ijtimoiy xizmatlar sohasida inson omilining o‘rniga texnik, texnologik va sunniy intellekt yordamida amalga oshiriladigan virtuallashtirilgan turlari vujudga keldi.

Xulosa o‘rnida, globallashtirish davrida axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish ijtimoiy-madaniy munosabatlarning harakatlantiruvchi mexanizmiga aylanmoqda, insonning axborot olishga bo‘lgan ehtiyoji yangi asrning ma’naviy-madaniy ehtiyojini qondirishning obyektiv jarayoni sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Jamiyatni virtuallashtirish ijtimoiy transformatsiya turi sifatida” deb nomlanadigan uchinchi paragrafida jamiyatni virtuallashtirish ijtimoiy transfor-

¹ Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: АСТ: сор. 2009. – С. 795

² Naisbitt John Megatrends: Ten New Directions Transforming Our Lives. Warner Books / Warner Communications Company, 1982. – С. 178.

³ Masuda Y. Managing in the information Society: Releasing synergy Japanese style. Oxford, 1990. – P. 44.

⁴ Азизқулов А. Аxborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolari. – Самарқанд, 2021. – Б. 13-14

⁵ Азизқулов А., Юсупов М., Рўзимуродов С. Компьютер философии. – Самарқанд, 2014. – Б. 6.

matsiya turiga aylanib borayotganligi nazariy dalillangan. Hozirgi zamonaviy jamiyatda texnogen siyosatga asoslangan industrial sivilizatsiyaning umri tugab yangi uyg'unlashgan global sivilizatsiyaga o'tishga kirishganligi, kishilarning texnologik, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy ehtiyoj va manfaatlarini tez fursatlarda qondirishga qaratilgan - zamonaviy axborotlashgan jamiyatning paydo bo'layotganligi har bir insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan xatti-harakatlarning tobora kuchayib borayotganligi, ilm-fan va texnologiyalarning inson salomatligini saqlash uchun safarbar etilayotganligi, demokratik tartib ko'lamining yanada kengayib borayotganligi, insoniyatni texnogen falokatidan saqlab qolish uchun qilinayotgan harakatlarning ommaviy tus olayotganligi bilan ifodalanmoqda. Jamiyat hayotining barcha jabhalarida yuzaga kelayotgan global muammolarni hal etish bugungi dunyoning oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Uni butun dunyo miqyosida an'anaviy usullar orqali hal etishga urinish foydasiz, besamar ishdir. Buning uchun esa global muammolarni hal qilishga qodir bo'lgan yangi usullarni qidirish, ularni amalga oshiruvchi yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish zarur.

Internetning jamiyatimiz hayotiga kirib kelishi natijasida, jumladan, ta'lim muassasalari, xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot tarmoqlari va boshqalar virtual makonga ko'cha boshladi. D.Muitov ta'kidlashicha, "Bugun internet, ommaviy axborot kommunikatsiya vositalari, reklamadan iborat bo'lgan zamonaviy axborot makoni axborot orqali boshqariladigan bir dunyoga aylandi"¹. Darhaqiqat, bugungi hayotni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Internet rivojlanishi barobarida uning texnik-texnologik imkoniyatlari va auditoriya qamrovi ham oshib bordi. "O'rgimchak to'ri" insoniyatlarning an'anaviy suhbatlashuv shaklini tubdan o'zgartirdi. O'lis masofadan turib nafaqat eshitish, balki ko'rish imkoniyatining yuzaga kelishi bilan virtual suhbatlar keskin ommalashdi². Bu esa ijtimoiy borliqni virtuallashtirish zaruratini anglatadi.

Jamiyatni virtuallashtirish ijtimoiy transformatsiyasiga kompleks yondashuv D.V.Ivanov tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, uni real narsalar va harakatlarni obrazlar - simulyatsiyalar bilan almashtirish sifatida taqdim etadi. Muallif jamiyatni virtuallashtirishni transformatsiyalashning uchta asosiy xususiyatini aniqlaydi:

- ta'sirning nomoddiylik (tasvirlangan obyekt haqiqiyga xos effektlarni keltirib chiqaradi);
- parametrlarning shartlilik (obyektlar sunniy va o'zgaruvchan);
- efemerlik (kirish - chiqish erkinligi uzilish va mavjudlikni qayta tiklash imkoniyatini ta'minlaydi).

Aynan shu xususiyatlar, bizningcha, sotsiologiyada internet virtual makoni-ning tadqiqot sohasini belgilaydi. V.L.Silaeva jamiyatni virtuallashtirishning yana bir o'ta muhim xususiyatini, ya'ni uning obyektiv voqelikdan hosil bo'lgan ikkilamchi tabiatini qayd etadi. U virtuallashtirish, birinchi navbatda, inson faoliyati sohalariga bog'liq bo'lib, aprior tarzda fenomenologik ravishda virtual tabiatga ega, shuning uchun hozirgi virtuallashtirish jarayoni ular uchun ikkinchi

¹ Muitov D. Axborotlashgan jamiyat xususiyatlari. - Toshkent: Ma'naviyat, 2015. - B. 11.

² Туленова Г; Сагдуллаева Д. Фалсафа. - Toshkent: "Алоқачи", 2019. - Б. 423.

darajali¹. Bu shuni anglatadiki, virtuallashtirish ijtimoiy o‘zaro ta’sirning xarakterini sezilarli darajada o‘zgartiradi, uni interaktiv tarmoq rejimiga o‘tkazadi, o‘zaro ta’sir ishtirokchilarining miqdoriy tarkibini kengaytiradi va ularni geografik bog‘liqlikdan xalos qiladi. Shu munosabat bilan virtualizatsiya jarayoniga uchragan ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning turlari alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan jamiyatning axloqiy kodlarini falsafiy tahlil qilishga ehtiyoj bor, chunki axloqiy me’yoriy-huquqiy salohiyat masalasini o‘rganishni talab qiladigan axloqning o‘zi ijtimoiy voqelikda mujassamlashning institutsional shakllarini oladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar asosida ikkinchi bobga quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

1. Jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining virtuallasuvi sharoitida inson kapitalini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri - “portlash effektini” vujudga keltirish va samaradorlik koeffitsientini yanada oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, zamonaviy ta’lim olishning samarali mexanizmlari bilan uyg‘unlashirilgan holatlarda kutilgan natijalarni berishi mumkin.

2. Insonning axborot texnologiyalariga moslashish hodisasi, uning takdirga tan berib yashash uchun kurashdan iborat passiv harakati natijasi emas, aksincha, axborot madaniyatini yuksaltirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, o‘z ongi va qalbiga ta’sir etuvchi axborot muhitiga ongli, faol munosabati bilan xarakterlanadi.

3. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishini belgilovchi bazis munosabatlari majmuasi, insonning mavjud axborotlarni o‘zlashtirish maqsadi yo‘lidagi uni o‘zgartirishdan iborat ijtimoiy faolliganing asosi hisoblanadi. Bunday holda, axborot bazisi insoniy munosabatlarning nisbatan mustaqilligi, faqatgina amaliy faoliyatining natijasi emas. Chunki, “jamiyatning virtuallasuvi va insonning axborot madaniyati” majmuasidagi amaliy munosabatlarda o‘z ifodasini topadi.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy xizmatni virtuallashtirishning metodologik muammolari”** deb nomlangan uchinchi bobida ijtimoiy xizmat va virtual xizmat muammosining ontologik tahlil predmeti sifatidagi o‘rni, xususiyati va evristik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

“Ijtimoiy xizmatni virtuallashtirish tushunchasi” deb nomlangan birinchi paragrafda ijtimoiy xizmat tushunchasining tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish zarurati analiz qilingan.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, faoliyat turi sifatida dunyoning barcha mamlakatlari rivojlanib bormoqda. A.Mishimaning ta’kidlashicha, Yaponiyada ijtimoiy xizmat ko‘rsatishda diniy omil va milliy qadriyatlarga tayangan holda xizmat ko‘rsatiladi. Hindistonda esa, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish nogironlarni guruhlanishi, boshpanasizlar hamda mehnat davomida jarohat olganlarga amaliy yordam berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, B.Vijayalakshmining ko‘rsatib o‘tishicha, amaliy yordam ko‘rsatish yil davomida ortib bormoqda. Bu o‘z navbatida mutaxassislarni tayyorlash masalasiga institutsional tarzda munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlar deganda fuqarolarning barcha ijtimoiy huquq, manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat, xususiy va nodavlat sektor-

¹ Силаева В.Л. Подмена реальности как социокультурный механизм виртуализации общества: дисс. ... канд. филос. наук. – М.: МГТУ им. Н. Э.Баумана, 2004. – С. 46.

lari tomonidan pullik, qisman pullik yoki beg'araz ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasiga aytiladi. Ijtimoiy xizmatlar aholi barcha qatlamlarining munosib turmush tarzini ta'minlash, inson kapitalini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy xizmat, avvalo, talab va taklifdan kelib chiqadi. Ijtimoiy xizmatga talabning ko'pligi xizmatlar bozorida yangi subyektlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Virtual xizmatlar internetdan tijorat maqsadlarida foydalanishning barcha sohalarini qamrab oldi: ta'lim (masofaviy), ko'ngilochar, sayohat, aloqa va xaridlar, to'lov operatsiyalari. Ishbilarmonlik munosabatlarining barcha jihatlari Internetda amalga oshiriladi: savdo, marketing, moliyaviy tahlil, to'lovlar, xodimlarni qidirish, foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlik. Elektron tijorat ham yetkazib beruvchilarga, ham mijozlarga foyda keltiradi. Internetning butun dunyo bo'ylab tarqalishi etkazib beruvchilar uchun savdo bozorining kengayishiga va xaridor uchun tanlovga olib keladi.

Elektron virtual xizmatning jozibadorligi aynan yetkazib beruvchining ham, mijozning ham bir vaqtda foyda olishidadir. Yetkazib beruvchi global savdo bozorini, yuqori raqobatbardoshlikni, individual ishlash qobiliyatini, ta'minot zanjirini qisqartirish yoki yo'q qilishni, xarajatlarni kamaytirishni, yangi biznes imkoniyatlarini qo'lga kiritadi.

Mijozlarning afzalliklari: katta tanlov, yuqori sifatli xizmat, tovar va xizmatlarning individual tanlovi, tezkor javob, narxlarni pasaytirish, yangi mahsulot va virtual xizmatlar haqida ma'lumotlar. Elektron biznesda bitimlar taraflari tomonidan olinadigan imtiyozlar bitimlar amalga oshiriladigan Internet muhitining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Foydalanuvchilar navigatsiya dasturlari yordamida atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishlari, tarkibni o'rganishlari mumkin.

Virtual xizmatlarni elektron biznesda to'lov tizimlarining mavjudligi uchun asos internet orqali to'lovlarni amalga oshirish xavfsizligini ta'minlash usullari hisoblanadi, chunki tarmoq tashqi kirish uchun butunlay ochiq. Elektron pullar - bu elektron imzo bilan shifrlangan va qalbakilashtirishdan himoyalangan, global axborot tarmoqlari orqali uzatilishi to'lovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar majmuasidir. Elektron pulning ikki turi mavjud: mijozning bankka o'ziga tegishli naqd bo'lmagan pul mablag'larini bir hisob varaqdan boshqasiga o'tkazish uchun bergan elektron topshiriqlari. Bunday buyurtmalarglobal tarmoqlar orqali uzatiladi va shuning uchun, prinsipial jihatdan, virtual xizmatni elektron pul ta'rifiga kiradi. Bu buyurtmalar ma'lum bir bankda qo'yilgan va jahon valyutalaridan birida o'lchanadigan real depozitlarga asoslanadi. Bunday pullarni hech qanday real valyutada hisoblash shart emas. Ba'zida bunday pullar tovar bilan ta'minlanadi. Ular global tarmoqda "mustaqil hayot" olib borishi yoki "elektron hamyonlarda" saqlanishi va maxsus ko'chma qurilmalar, jumladan, naqd pul kabi kompyuterga ulangan qurilmalar orqali uzatilishi mumkin. Ulardan birinchisini virtual pul, ikkinchisini esa elektron naqd pul deb atashdi.

Xulosa qilib aytganda, kompyuter texnologiyasi taraqqiyoti virtual xizmatlarni amalga oshirish uchun misli ko'rinmagan innovatsion usul va vositani bermoqda. Endi ong usti va ong osti ijodiy-sinergetik jarayonlarni kompyuterda dasturlashtirilgan virtual reallik tizimlari yordamida modellashtirish imkoniyati paydo bo'ldi.

“Ijtimoiy xizmatni virtuallashtirish metodologiyasi” deb nomlangan ikkinchi paragrafda fundamental fan, ta’lim va ijtimoiy ongning boshqa sohalari, ijtimoiy xizmatlarning rolini kuchaytirish masalalari tadqiq etilgan. Buning natijasi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar xilma-xilligining oshishi, muam-molarni hal qilish va yuzaga keladigan vaziyatlardan chiqish yo‘llarining o‘zgaruv-chanlik darajasining oshishi bo‘ldi.

O‘tmishda ijtimoiy ish yoki ijtimoiy xizmat deb ataluvchi muayyan tizim bo‘lmagan bo‘lsa-da, biroq bu faoliyatning elementlari qadimdan mavjud bo‘lgan. Xususan, Qadimgi Misr ibodatxonalarida ochlarga tekin non va boshqa oziq-ovqat turlarini, Qadimgi Yunoniston va Rimda amal qilgan filantropik harakatlar namunalarida, ya’ni kambag‘allashgan aholi qatlamlari orasida non, kiyim-kechak hamda pul tarqatilishi, Qadimgi Xitoyda hamdard bo‘lish va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kabilarda ifodalanganki, filantropik xulq namunasini ifoda etadi. Filantropiya, beg‘araz axloq namunasi bo‘lib, xayr-ehsonni targ‘ib etishga yo‘naltirilgandir.

Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, diniy ta’limotlarda yordam ko‘rsatish tarzida amal qilib kelgan. Uning ma’naviy-kognitiv konseptlarini tahlilini amalga oshirganda, quyidagi yondashuvlar mavjudligini kuzatish mumkin: buddizmda dana; iudizmda idaki; xristianlikda rahm-shafqat; islomda sadaqa va zakot kabi konseptlarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Saxovatpeshalikka amal qilish va chorlash Markaziy Osiyo mintaqasida ham o‘ziga xos tarzda, jumladan iqtisodiy imkoniyati cheklangan “qo‘li kalta” aholi guruhiga jamoaviy shaklda, ya’ni hashar ko‘rinishida uy qurib berish, to‘y va boshqa tadbirlarni o‘tkazishda ko‘maklashish ko‘rinishida amal qilgan. O‘zaro yordam ko‘rsatish, islom dini bilan bog‘liq amallar, jumladan, sadaqa, zakot, bechoralarga ko‘mak berish singari ijtimoiy xizmatning faoliyat turi sifatidagi tarixiy ildizlarida ham ko‘rish mumkin. Buni ikki sabab bilan izohlash mumkin. Birinchidan, hech bir ijtimoiy tizim bo‘shliqda paydo bo‘lib qolmaydi. Ya’ni, mavjud resurslarning hisobidan yaratiladi. Dastlabki shart-sharoitlar taqozasi bilan u yoki bu sohadagi ijtimoiy tuzilmalar tizimlashtiriladi, qandaydir yaxlitlikka aylansa, ikkinchidan, ma’lum bir tarixiy bosqichlarda aholining turli guruhlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish amaliyoti turli shakllarda umumlash-tiriladi va institutsional mazmun kasb etadi. Masalan, Amir Temur davrida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish davlat darajasida amal qilgan bo‘lib, “Temur tuzuklari”da “Faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol-ko‘rlarga nafaqa belgilansinlar”, - deb ta’kidlaganligi bundan dalolat beradi¹. Natijada, jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim hisoblangan alohida mustaqil sohaga, hatto mustaqil ilm, fanga aylanadi.

Dissertatsiyada ijtimoiy xizmat ko‘rsatishga oid teologik, bixevioristik, kognitiv hamda majmuaviy va integrativ ta’limotlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Bu, o‘z navbatida ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchilarni professiogram-masini tayyorlash uchun amaliy xizmat qiladi. Shu tariqa, qiyosiy tahlillar natijasi sifatida ijtimoiy xizmatning shakllanishi va rivojlanishini quyidagi bosqichlarga ajratgan: ibtidoiy bosqich (faqat yaqin kishilariga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish tarzida amal qilgan); madaniy bosqich (jismoniy va ruhiy muhtojlarga yordam ko‘rsatish

¹ Ҳабибулла Кароматов. Темур тузуклари. –Тошкент, 2003. – Б. 19-20.

tarzida amal qilgan); institutsional bosqich (kasbiy, tizimli va tuzilmali yordam ko'rsatish tarzida amal qilgan); tijorat bosqichi (yordam ko'rsatish orqali foyda ko'rishga qaratilgan mehnat turi sifatida amal qilishi) hamda virtual ijtimoiy xizmat bosqichi (onlayn internet orqali xizmat ko'rsatish).

Ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish doirasida quyidagi muhim ilmiy va amaliy davlat vazifalarini hal etish mumkin: davlat boshqaruvining yangi samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish; kompyuter virtual texnologiyalari asosida yangi turdagi qurollarni ishlab chiqish va yaratish va mavjudlarini takomillashtirish orqali O'zbekiston davlatining mudofaa qobiliyatini oshirish; kompyuter virtual texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq yangi usullar orqali davlatning axborot xavfsizligini oshirish, shuningdek: saylov kompaniyalarining yangi turlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; reklama kompaniyalarining yangi turlari, shuningdek, ishlab chiqish va yaratish: innovatsion ommaviy axborot vositalari (virtual televideniye va boshqalar); muassasalarning innovatsion tuzilishi; virtual ta'limning yangi samarali tizimi; virtual san'atning yangi turi - virtual teatr; virtual tibbiyot; ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashning global virtual tizimi, shuningdek, yangi samarali usullar: iqtisodiyotda; ishlab chiqarishda; neft va gaz ishlab chiqarishda; energiyada; bank va fond birjasida; biznesda; avtomobilsozlik, aviatsiya, kosmik va boshqa sohalarda modellashtirish; arxitekturada dizayn, shuningdek, yangi turlari: transport; aloqa vositalari; global va mahalliy axborot tizimlari; o'yin-kulgi va boshqalar. Ijtimoiy xizmatlarning kompyuter virtual texnologiyalarini joriy etishning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: davlat, harbiy, ta'lim, tibbiyot, sanoat, energetika, bank, birja, aloqa, dizayn, arxitektura, taqdimot, ijodiy, ko'ngilochar soha va boshqalar.

Xulosa o'rnida, virtual olamni rivojlanishi juda tez amalga oshmokda, shuning uchun bu hodisalarning natijasini oldindan aytib berish juda ham qiyin, bunga qaramay, ushbu muammoning ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlari maydoni asta-sekin yaratilmoqda. Shuning uchun virtual voqelikni falsafiy, ijtimoiy-ruxiy, jamiyatshunoslikka oid va boshqa muammolari doirasida tadqiqot qilish metodologiyasini ishlab chiqish, hamda virtual voqelik konsepsiyasini falsafiy hodisa sifatida asoslab berish zarurati tug'iladi.

“Ijtimoiy xizmatni virtuallashtirishning nazariy modellari va amaliy texnologiyalari” deb nomlangan uchinchi paragrafda virtual xizmatlarning nazariy modellari infratuzilma, ommaviy axborot vositalari tizimi, axborot texnologiyalari bozori, aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya vositalari, axborot mahsulotlari va xizmatlari - o'zaro ta'sir qiluvchi axborot jarayonlari va tizimlari majmui o'rganilgan.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish birinchi navbatda: - keksa va qariyalarga, yoshligidayoq (yuvental (yoshlar) nogironlar) mehnat layoqatini yo'qotganlarga, bolalarga, mehnat layoqatini yo'qotgan xotin-qizlarga, mehnat layoqatini yo'qotgan erkaklarga va ishsizlarga, ikkinchi navbatda: - mehnat faoliyati davomida jarohat olganlarga, ko'p farzandli oilalarga, vaqtinchalik ish joyini yo'qotganlarga, muhojirlarga, uchinchi navbatda: - yosh oilalarga, farzand tarbiyasi bo'yicha yosh ota-onalarga, to'rtinchi navbatda: - oila xo'jalik ishlarini bajarish uchun ijtimoiy

yordam, madaniy va maishiy ishlarni bajarish uchun ijtimoiy yordam, huquqiy va iqtisodiy vazifalarni bajarish uchun yordam ko'rsatilishi asoslab berilgan.

Tadqiqot funksional-strukturaviy tahlilining muhim natijalari qatorida quyidagi funksiyalarni ko'rsatish o'rinli: diagnostika o'tkazish; rejalashtirish va yo'naltirish; prognostika o'tkazish; ijtimoiy terapevtik (ogohlantiruvchi-profilaktikaviy); huquqiy himoya qilish; ijtimoiy-pedagogik; ijtimoiy-psixologik; ijtimoiy-tibbiy; ijtimoiy-maishiy; kommunikativ; targ'ibot (reklama); ijtimoiy-madaniy; tashkiliy. Mazkur funksiyalarni bajarish ijtimoiy xizmat bilan shug'ullanuvchi xodimning zimmasida bo'lib, bu o'z navbatida ularni nafaqat kasbiy bilimlarga, balki maishiy va ma'naviy, kompyuter texnologiyalari bilimlarga ega bo'lishini taqozo etadi. Chunki kasbiy bilim "ijtimoiy ish mutaxassisi - ijtimoiy yordam olishga muhtoj inson (guruh) - namoyon bo'lgan muammo (nuqson) - virtual amaliy yordam ko'rsatish" kabi munosabatlar tarkibini ta'minlasa, maishiy va ma'naviy bilimlar esa, "ijtimoiy muhit - ijtimoiy ish mutaxassisi - ijtimoiy yordamga muhtoj inson (guruh) - mikro (ma'naviy) muhit - amaliy yordam ko'rsatish - maishiy hayot - muammo (nuqson) - maqsadga ega bo'lish (shakllantirish)" kabi munosabatlar majmuasida amal qiladi. Ijtimoiy xizmatning ushbu ikki xil strukturaviy klassifikatsiyasidan ko'rinib turibdiki, uning funksiyalari yordamning tuzulishi va darajalarini belgilab berish uchun xizmat qiladi. Virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatish manzilligiga qarab kichik ijtimoiy guruhlarda (community work), individual ijtimoiy xizmat (case work), guruh bilan ijtimoiy xizmat (group social work) shakllarida olib boriladi. Bugungi kunda ijtimoiy xizmatning inqirozli konsepsiyasi (inqirozli vaziyatlarda ijtimoiy xizmat olib borish texnologiyasi) ham shakllanayapti. Mazkur konsepsiya asosida ijtimoiy xizmatda "inqirozli intervensiya" tushunchasi kiritildi. Bu tushuncha, alohida inson yoki guruhni emotsional, ma'naviy, ekzistensial va axborot jihatlaridan qo'llashni nazarda tutadi.

Virtual korporatsiyalar, telestudiyalar, virtual demokratiya, virtual pullar va boshqalar mavjud bo'lib, bu ro'yxatni cheksiz davom ettirish mumkin. Bugungi kunda biz insonning o'z hayoti, shaxsiy tarixi haqidagi "an'anaviy" idrok bilan tez-tez to'qnash kelamiz. Bu nuqtai nazardan, vaqt chiziqli bo'lib, voqealar mantiqiy va zanjirli harakatlar to'plami sifatida taqdim etiladi. Vizual obyektlar, masalan, fotosuratlar ushbu zanjirning bo'g'inlari bo'lib, kishiga o'tmishini qurishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, "Antifotografiya" kitobiga kiritilgan E.Petrovskayaning fikrlari qiziqish uyg'otadi¹. Xususan, biz dunyo tamg'alar atrofida qurilgani va shuning uchun "mening suratim"ni "har qanday surat", ya'ni tomoshabinga tanish bo'lgan kontekstda begonalarni ko'rsatadigan surat bilan almashtirish mumkinligi haqida gapiramiz. Eslash, shaxsiy tarixga murojaat qilish istagi "ijtimoiy affekt"ni belgilaydi. Va bu butunlay boshqa rakurs. Bu holda vaqt chiziqli bo'lishdan to'xtaydi, u diversifikatsiyalanadi, ko'paytiriladi. Virtuallikning yaratuvchisi iste'molchisi uchun vaqt endi jarayon va faktlarning ko'rsatkichi bo'lmay, geografik makonning xususiyatlari o'zgarib, evriluvchan xarakterga ega bo'ladi.

¹ Петровская Е. Антифотография. – М.: "Три квадрата", 2003. – С.89

Xulosa qilib aytganda, virtualistik bilimlarning asoslanganligini, ularda nazariya va amaliyot uyg'unligini belgilashda, nazariya va uni unsurlarining ilmiy ratsionallik normalariga javob berishini aniqlash adekvatlik va muqobillik nisbati nuqtai nazaridan ko'rib chiqish muhim metodologik ahamiyatga ega.

Yuqorida bildirilgan mulohazalar asosida uchinchi bobga quyidagi xulosalarni ilgari surishimiz mumkin:

1. Kompyuterning kashf qilinishi virtual reallik tushunchasiga yangicha yondashish kerakligini ko'rsatdi, kompyuter inqilobi va taraqqiyotining mohiyatini ochishga qaratilgan konsepsiyalar va yondashuvlar bayon qilindi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishning bosh kategoriyasi hisoblangan texnologik taraqqiyotning umum qabul qilingan ta'rifi yoki tushuntirish modeli hozircha yo'q. Bu sohada izlanishlar davom etmoqda.

2. Hozirgi paytda virtualistika paradigmasi asosida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishni o'rganish empirik, eksperimental va nazariy darajalarda olib borilmoqda. Olinayotgan natijalarning falsafiy refleksiyasi hamda ontologik va evristik tahlili dolzarb muammo bo'lib turibdi.

3. Virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatishni bir qator paradigmalari mavjud bo'lib, ular aniq ilmiy-falsafiy ta'limot asosida yaratilgan. Bunga funksional-madaniy paradigma, axloqiy-aksiologik paradigma, vital-mo'ljalga olish paradigmasi kabilarni keltirish mumkinki, ularning qatorida bizning mamlakatimizga xos bo'lgan funksional-madaniy paradigmani ham ko'rsatib o'tish joiz.

Dissertatsiyaning **“Ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish: konstant va virtual xizmatlar transformatsiyasi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, raqamli ijtimoiy xizmat va aholini himoyalashning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalari o'rganilgan.

“Raqamlashtirish, mazmuni va funksiyalari” deb nomlangan birinchi paragrafda, raqamlashtirish tushunchasi, mazmun mohiyati va jamiyatda bajaradigan funksiyalari nazariy tahlil qilingan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalarida faol qo'llanilmoqda. iqtisodiyot, bank, xizmat sektori, shuningdek, ta'lim jarayonini ham tez sur'atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda.

Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda. Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek **“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng**

qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko‘p mablag‘ va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi”¹. Demak, ijtimoiy xizmatlarni raqamlashtirish davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta‘lim va xizmatlar deganidir.

Xulosa qilib aytganda, raqamlashtirish bugungi global jamiyatda dolzarb masala hisoblanadi. Jamiyatni raqamlashtirish orqali fuqarolar davlat organlari faoliyati qolaversa virtual xizmat ko‘rsatish sifatini bevosita guvohi bo‘lish imkoniyatiga ega. Masalan, yagona darcha faoliyati davlat va fuqaro o‘rtasida bevosita raqamli bog‘lanuvchi hisoblanadi. Raqamlashtirish korrupsion holatlar va tanish bilish bilan bog‘liq muammolarni oldini oladi.

“Jamiyatning ijtimoiy sohasini raqamlashtirish: muammolar va yondashuvlar” deb nomlangan ikkinchi paragrafda, ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning xalqaro tajribasi va O‘zbekiston amaliyoti, ijtimoiy xizmatning sohaviy rivojlanish tendensiyalari, ijtimoiy xizmatni raqamlashtirishning markaziy paradigmalari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Raqamlashtirish ijtimoiy jarayonlarga kiritilmoqda, odamlarning muvaffaqiyatli hayoti tobora ko‘proq unga bog‘liq, bundan tashqari, davlat tashkilotlari va tuzilmalari ishiga raqamli texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish kuza-tilmoqda.

Hozirgi davrda yangi raqamli texnologiyalar, biznesning innovatsion model-lari jamiyatning iqtisodiy hayotiga sezilarli darajada o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Raqamlashtirish va boshqa texnologik yuksalishlar tufayli insoniyat global o‘zga-rishlarning yangi davriga kirdi. Bizningcha, uning rivojlanishini zamonaviy jamiyat va iqtisodiyot boshidan kechirayotgan boshqa o‘zgarishlar kontekstida, ular bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqish kerak. Buning uchun esa uning tizimli xususiyatlarini, vositalarini iqtisodiy amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini batafsil o‘rganish zarur:

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyoning ko‘plab mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishida axborot texnologiyalari, xususan, raqamli iqtisodiyotni yuksaltirishga bo‘lgan e‘tibor kuchaydi. Ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli shakllanishi mumkin bo‘lgan yagona axborot – iqtisodiy makonining o‘shishiga va mehnat unumdorligini oshirishga; innovatsion ish o‘rinlari va raqamli aktivlarning yaratilishiga; fuqarolar huquqlarining yanada yaxshilanishiga; jahon bozoriga chiqish yo‘llarining ochilishiga; korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlash, davlat xizmatlari sifatini oshirish va boshqalarga yordam beradi. 1995-yilda N.Negroponte tomonidan iqtisodiy jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiya-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

laridan (raqamli) foydalanish va ularni boshqarishga nisbatan kiritilgan “Raqamli iqtisodiyot” konsepsiyasi qabul qilingan.

N.Negropontening fikricha, axborot hajmi bilan almashtiriladigan mahsulotning jismoniy og‘irligining yo‘qligi, elektron tovarlarni ishlab chiqarish uchun resurslar sarfining kamayishi, mahsulot egallagan maydonning ancha kichikligi, shuningdek, Internet orqali tovarlarning deyarli bir zumda harakatlanishi iqtisodiyotni raqamlashtirishni talab etadi. Uy xo‘jaliklarini raqamlashtirish ko‘pchilik uchun tushunarli va tanish bo‘lib qoldi. Ko‘p odamlar ko‘pincha boshqa raqamli tizim - signaldan foydalanadilar. Maxsus sensor kvartirada begona odamlar bor-yo‘qligini kuzatib boradi va agar ular aniqlansa, bu nazoratchiga boshqaruv paneliga signal beradi. Bostirib kirganda binolardan chiqishni to‘siq qo‘yadigan yanada murakkab tizimlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, sifatli ta‘lim va xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi barcha sohalarida axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma‘lumotlar bo‘ladi. Ularning tahlilidan so‘ng esa to‘g‘ri boshqarish bo‘yicha yechim ishlab chiqiladi.

“Ijtimoiy xizmatni raqamlashtirishda konstant va virtual xizmatlar dialektikasi” deb nomlangan uchinchi paragrafda raqamlashtirish, hayot va ishlab chiqarishning turli sohalariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari ilmiy argumentlangan. XX asrning 90-yillari oxirida dunyo kompyuter texnologiyalari va raqamli iqtisodiyot haqida gapira boshladi, o‘sha paytda birinchi mobil telefonlar endigina paydo bo‘la boshladi. O‘shandan beri 30 yildan ko‘proq vaqt o‘tdi va narsalar Interneti biz uchun tanish hodisaga aylandi: deyarli har bir uyda aqlli qurilmalar bor, ulardan butun dunyo bo‘ylab milliardlab odamlar foydalanadilar.

